

YANGI O'ZBEKISTONDA O'G'IL BOLA TARBIYASI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA MILLIY TARBIYANI EGALLANISHI

Xojiqulov Naimjon Raimovich

Fan va texnologiyalar universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14921344>

Annotatsiya. Bu maqolada o'g'il bola tarbiyasida milliy tarbiyaning egallanishi, qadriyat va an'analarning o'rni, farzand tarbiyasida ota-onaning vazifalari, tarbiyani rivojlantirishga ijtimoiy mazmunning falsafiy asoslanishi bo'yicha pedagog, psixolog, falsafiy olimlarning ilmiy qarashlari keltirilib, ularga shaxsiy munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: milliy tarbiya, ta'lim va tarbiya uyg'unligi, ijtimoiy madaniylashuv, o'g'il bola tarbiyasi, pand-nasihat, urf-odatlar, an'analar, aksiologik, falsafiy qarashlar tahlili.

Bolaga tarbiya berishda ko'plab omillar qatori oiladagi hayot va ijtimoiy munosabatlar muvozanatini ta'minlash muhim. Tadqiqotchi Sh.Amirxo'jayevning fikricha, "dunyo ilm-fani taraqqiyotida oila ma'naviy madaniyatning asosi, shaxs ijtimoiy madaniylashuvining ijobiy kechishini ta'minlovchi muhit hamda qadriyatlar va an'analarni ifoda etuvchi maskan sifatida o'rganiladi. Oilagina jamiyatni konstant holatda saqlab qoladi, oila inson ongida boshqa qadriyatlar o'rtasida yetakchi o'rinni egallab, shaxsiy hayot va ijtimoiy munosabatlar orasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Bugungi sharoitda oila o'z rivojlanishining qiyin, noaniq davrini boshdan kechirmoqdaki, bu bir tomondan, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri ostida, ikkinchi tomondan, oilada sodir bo'layotgan ichki jarayonlar ta'siri ostida sodir bo'lmoqda hamda bunday o'zgarishlar shaxs, jamiyat va davlat hayotidagi jarayonlarga ta'sir etadi"¹. "Qolaversa, ma'naviy yetuk oila – ma'naviy yuksak jamiyat tayanchidir. Oila – urf-odatlar, shajara, an'analar, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni farzandlar ongiga singdirish, har bir oila a'zosini kasb-hunar malakalari bilan qurollantirish ma'naviy barkamollikni tarbiyalashning asosidir"².

Oilaviy tarbiyaviy jarayonida o'g'il bola shaxsida yangi sifat va fazilatlar mujassamlashib, xulqi hamda ko'rinishida ifodalanadi. Agarda, ijtimoiy rollarni bajarish davomida har bir inson tarbiyaviy faoliyat bilan shug'ullanib, bobo, buvi, ota, ona, aka, opa, qaynona, qaynota, ustoz, qo'shni yoki yaqin qarindosh kabi maqyellarda amal qilishini inobatga olsak, bu jarayonga har bir xalq tarixiy tajribasidan kelib chiqqan holda munosabatda bo'lishi mumkinki, uni mental xususiyat deb ko'rsatish mumkin.

O'g'il bola kamolotini ta'minlash teologik, falsafiy, psixologik, etnografik, tibbiy, huquqiy, antropologik, iqtisodiy, sotsiologik ta'limotlarning asosini tashkil etadi. Mazkur yo'nalishda tadqiqotchilar tomonidan talaygina tarixiy manbalar jamlangan, empirik tadqiqotlarning xulosalari tarzida asarlar yozilgan. Milliy tarbiyaning manfaatini himoyalash maqsadida komparativ (qiyosiy-tarixiy) metod asosida ularni o'rganib, tarbiyaviy faoliyatda qo'llash mumkin. Bu o'z navbatida alohida insonning xulq namunasida, ijtimoiy guruh a'zolarining hamjihatligida (inoqligida, Ibn Xaldunning ta'limotida asabiya³) ifodalanib jamiyat hayotining ma'naviy poydevori ta'minlanadi.

¹ Amirx'jayev III. Ўзбек oilalarida ijtimoiy-madaniy jaraёнлар трансформацияси. Монография. - [GlobeEdit](https://my.globeedit.com/catalog/details/store/gb/book), 2022. – 176 б. <https://my.globeedit.com/catalog/details/store/gb/book>

² Саидов А.И., Сайдуллаев Ж.Я. Ўзбек oilalarida tarbiyaning ijtimoiy-psixologik ahamiyati // Science and innovation international scientific journal. Volume 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. – Б. 1649-1654.

³ Главный фактор в теории Ибн Халдуна. В кн.: История социальной мысли в Исламе. – Москва: Вече, 2012. - С. 217-228.

Oila ijtimoiy mazmuniga ko'ra, odatda, "uch xil o'zaro aloqadagi ijtimoiy guruhdan tashkil topadi. Asosiysi nikoh, nikohning natijasi sifatida er-xotin o'rtasida yaqin munosabatlarning qaror topishi va pirovardida farzandlarning paydo bo'lishi". Tadqiqotchi G.K.Dumarovanning fikricha, "Sharq oilasi evolyutsiyasiga e'tibor qaratganda uning o'ziga xos tadrijiy bosqichlari, ma'naviy dunyosi, o'zaro munosabatlar qay darajada bo'lganligini ko'rish mumkinligini, sharqda baynalmilal nikohlar o'ziga xos tarix va falsafaga egaligini quyidagicha izohlaydi: birinchidan, hududiy jihatdan chegaradosh millat va elatlar bilan tinch-totuv yashash maqsadida quda-andachilik yo'lga qo'yilganligi; ikkinchidan, turli millat va elatlarning tarixiy rivoji bir tarzda rivojlangan va kamol topganligi uchun o'zaro qiz berib, qiz olish qaror topganligi"⁴.

- Oiladagi tarbiyaviy faoliyat, murakkab tuzilishga ega bo'lib, uni tizimli tarzda olib borilgandagina quyidagilarni shakllantirishga erishish mumkin: axloqiy meyorlarni turlari, maishiy va ijtimoiy hayot tarzida amal qiluvchi qoidalarni o'zlashtirishga; dunyoqarashni shakllantirib, anglangan hayotiy qadriyatlarni egallash yo'llarini o'zlashtirishga; ijtimoiy faollikka, atrof-muhit va o'g'il bolani o'ziga nisbatan e'tiborli bo'lishni o'zlashtirishga; mehr ko'rsatish, ijobiy hissiyotlarni namoyon etib, salbiy hissiyotlarni yashirish tarzini egallashni o'zlashtirishga; bilim olish va undan foydalanishni o'zlashtirishga; axborot texnologiyalaridan vosita sifatida foydalanishni o'zlashtirishga; diniy, milliy, kasbiy, etnoslararo, ijtimoiy tolerant⁵ va intolerant⁶ bo'lishni o'zlashtirishga; ijtimoiy va kasbiy muloqotga kirishishni o'zlashtirishga; hamkorlikda faoliyat yuritishni o'zlashtirishga; ijtimoiy rollarni egallashni o'zlashtirishga; ijtimoiy, kasbiy mas'uliyatni mohiyatini o'zlashtirishga; funksional savodli bo'lib, maqsadni tanlash va unga erishish yo'llarini o'zlashtirishga; kasb tanlash, kasbiy muhitga moslashishni o'zlashtirish kabilarga.

Tadqiqotchi M.Nazarov o'g'il bola tarbiyasida oilaning o'rnini tadqiq etishda "Oilaviy tizimlar nazariyasi"dan foydalanish maqsadga muvofiqligini bunda M.Bouen, A.Varga, S.Minuxin, E.Eydemiller, V.Yustitskis, G.Shoumarov, R.Samarov, V.Karimovalar tomonidan taklif etilgan va amaliyotda qo'llash bosqichlari asoslab berilganini qayd etgan"⁷. Professor J.T.Shermuhammedova "iqtisodiy, demografik va ishlab chiqarish tusidagi vazifalar ichki oilaviy munosabatlar kompleksini belgilaydi. Quyida keltiriladigan bayonlarda an'anaviy patriarxal oila, asosan, qishloq joylarda mavjud bo'lgan o'zaro munosabatlar asosiy o'rin egallaydi. Va ichki oilaviy munosabatlar qanday yo'lga qo'yiladi? degan savolga kichik yoshdagi bolalar oilada kattalarning bo'ysinuvida bo'ladi. Agar birinchi farzand o'g'il bo'lsa, bu narsa ayniqsa, kuchli namoyon bo'ladi. Katta aka barcha uka-singillariga g'amxo'rlik qiladi, ularni uydan tashqarida ham muhofaza qiladi. U vazifalarni taqsimlaydi, kichiklarga topshiriqlar

⁴ Думарова Г.К. Замонавий ўзбек oilalarida ижтимоий-маданий жараёнлар динамикаси // Eurasian journal of entrepreneurship and pedagogy. Volume 1, Issue 1, November 2023. – Б. 50-56.

⁵ Etimologik jihatdan tolerant tushunchasi lotin (tolerare) tilidan olingan bo'lib, chidamli, bardoshli degan ma'nolarni anglatadi. Har bir milliy madaniyatda uni ekvivalenti mavjud bo'lib, o'zbek tilida sabr tushunchasi tolerant tushunchasiga ekvivalent hisoblanadi.

⁶ O'ziga ijobiy munosabatda bo'lishning shakllanganligi. Mazkur birinchi navbatda o'z his-tuyg'ulari, shaxsiy qadr-qimmat va sharfni anglaganlikda, salbiy emotsiyalar va hislarni baratarf etish ustida ishlashda o'z aksini topadi.

⁷ Назаров М. Оилавий ҳаёт тарзи такомиллашувининг ижтимоий-психологик жиҳатлари // ЎЗМУ хабарлари, 2016. – Б. 183-187.

beradi”⁸ deya o‘zbek oilasidagi o‘g‘il bolalarga bo‘lgan munosabatni ko‘rsatib o‘tgan. Bizningcha, ham o‘zbek oilasida o‘g‘il farzandga nisbatan oila boshi va avlodlar davomchisi sifatida qarash dominantligi kuzatiladi. Shu boisdan ham oilada o‘g‘il farzand tug‘ilsa unga nisbatan alohida yondashuv asosida tarbiyalashga va ma’lum bir sotsiumda mavjud bo‘lgan meyorlarga qat’iy amal qilishga e’tibor qaratiladi. Agarda barqaror o‘zbek oilasining ijtimoiy dinamikasiga e’tibor qaratsak, ota-onalar katta farzandiga, katta farzandlar kichiklarga amaliy yordam ko‘rsatib, aka-ukalik, opa-singillik mehribonchiligini ko‘rsatishini kuzatishimiz mumkin. Ularni munosabatini ona ta’minlaydiki, Fotimaxon Sulaymon qori qizi “Ayollarga xos masalalar” asarida farzandlar tarbiyasi xususida bu masalaga e’tibor qaratgan. “Agarda, ona farzandlariga bir tarzda, ya’ni birini ikkinchisidan ustun qo‘ymasdan munosabatda bo‘lsa, ularni o‘zaro munosabatida mehr shakllanadi”⁹. Lekin, ayrim oilalarda bu tarzdagi mehribonlik ko‘rsatish kuzatilmaydi.

Tadqiqotchi M.K.Xaliqova fikricha, o‘zbek oilasida o‘g‘il bolalar oilada “jinsga bog‘liq ijtimoiy konstruksiyalar ta’sirida rivojlanadi. Masalan, o‘g‘il bolalar ongiga o‘zlarining his-tuyg‘ularini sezdirmaslik, jismoniy kuchni namoyon etish, harbiy xizmatga tayyorgarlik ko‘rish singdiriladi. Uy mehnati esa azaldan ayollar zimmasidagi vazifa deb tushuniladi”¹⁰. Buyuk Britaniyalik sotsiolog, London universiteti professori Enn Okli (Ann Oakley) tomonidan “Uy mehnati sotsiologiyasi” asari nashr etilgunga qadar sotsiologiyada uy mehnati sohasini e’tiborsiz qoldirgan, chunki faqat maosh to‘lanadigan faoliyat mehnat deb hisoblangan¹¹. O‘zbek oilasida o‘g‘il bolalarni tarbiyalashda e’tibor qaratiladigan yana bir jihat ularni “erkak qilib tarbiyalash”, ya’ni jins tarbiyasiga ham alohida e’tibor qaratiladiki, bu borada ilmiy izlanish olib borgan tadqiqotchi N.K.Mamanova shunday yozadi: “ O‘g‘il bolalar va erkaklar his-tuyg‘ularini atrofdagilarga ifoda etishiga shoshilmaydilar, ayniqsa, salbiy hislarini;ko‘pincha erkaklar jinsi bir do‘stlari bilan ham his-tuyg‘ularni oshkora qilishda vazminlik namoyon qilishadi;jamiyat tomonidan aynan erkaklar o‘z his-tuyg‘ularini namoyon qilish borasida qattiq cheklovga uchraydilar (erkaklar yig‘lamaydi va b.)”¹²

Demak, o‘g‘il bola tarbiyasida oilaning hayoti, undagi o‘zaro munosabatlar, milliy urf-odatlar, an’analari va qadriyatlari, turmush tarzi, madaniyati, tarbiyaviy muhiti qonuniyatlarini o‘rganishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Амирхўжаев Ш. Ўзбек оилаларида ижтимоий-маданий жараёнлар трансформацияси. Монография. - [GlobeEdit](#), 2022. – 176 б.

⁸ Шермухамедова Ж.Т. Оилавий ҳуқуқий муносабатларда конфликт жараёнларини олдини олиш гендер тенглигини таъминлашнинг асосидир. Оилавий-ҳуқуқий муносабатларда гендер тенглиги. Конференция материаллари тўплами. – Тошкент: «Mahalla va Oila nashriyoti», 2021. - Б. 25-29. (-212 б.)

⁹ Фотимахон Сулаймон қори қизи. Аёлларга хос масалалар. - Тошкент: Мовароуннаҳр, 2003. - Б. 109.

¹⁰ Халикова М.К. XXI асрнинг ижтимоий генезисда гендер парадигмасининг ўрни. Оилавий-ҳуқуқий муносабатларда гендер тенглиги. Конференция материаллари тўплами. – Тошкент: Mahalla va Oila nashriyoti, 2021. - Б. 51-58. (-212 б.)

¹¹ Окли, Энн. Социология домашнего труда. Оксфорд (Англия). 1974. ISBN9780631139249.

¹² Маманова Н.К. Оилада эр ва хотиннинг тенглигини таъминлашнинг психологик аспекти. Оилавий-ҳуқуқий муносабатларда гендер тенглиги. Конференция материаллари тўплами. – Тошкент: Mahalla va Oila nashriyoti, 2021. - Б. 58-62.

2. Думарова Г.К. Замонавий ўзбек оилаларида ижтимоий-маданий жараёнлар динамикаси // Eurasian journal of entrepreneurship and pedagogy. Volume 1, Issue 1, November 2023. – Б. 50-56.
3. Саидов А.И., Сайдуллаев Ж.Я. Ўзбек оилаларидаги тарбиянинг ижтимоий-психологик ахамияти // Science and innovation international scientific journal. Volume 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. – Б. 1649-1654.
4. Назаров М. Оилавий ҳаёт тарзи такомиллашувининг ижтимоий-психологик жиҳатлари // ЎзМУ хабарлари, 2016. – Б. 183-187.
5. Шермухамедова Ж.Т. Оилавий ҳуқуқий муносабатларда конфликт жараёнларини олдини олиш гендер тенглигини таъминлашнинг асосидир. Оилавий-ҳуқуқий муносабатларда гендер тенглиги. Конференция материаллари тўплами. – Тошкент: «Mahalla va Oila nashriyoti», 2021. - Б. 25-29. (-212 б.)
6. Фотимахон Сулаймон қори қизи. Аёлларга хос масалалар. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2003. – Б. 109